

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта
махсус таълим вазирлиги
Бухоро давлат университети



**Тил, адабиёт, таржима, адабий танқидчилик халқаро
илмий форуми: замонавий ёндашувлар ва
истиқболлар**

**мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман
материаллари
ТЎПЛАМИ**

Бухоро - 2021

Qurvatova Dilrabo Habibovna, Ochilova Nilufar O'limasovna. CHINGIZ AYTMATOVNING "ALVIDO, GULSARI" ASARIDA "OT" OBRAZI.....	253
Маърифат Ражабова. АЛИШЕР НАВОИЙ ЛИРИКАСИДА ДЕВ, ПАРИ, МАЛАК ОБРАЗЛАРИНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ.....	256
О.М. Файзуллоев, М.М.Рахмонов. САМА ЖЕНЩИНА БЫЛА В ЕГО ВЛАСТИ (О ПРОИЗВЕДЕНИЯХ УИЛКИ КОЛЛИНЗА).....	259
H.O. Yuzurova, Z.O'. Raximova. DESCRIPTION OF SOCIAL LIFE AND SENSE OF GRIEF IN KHALED HOSSEINI'S "THEKITE RUNNER".....	265
Ф.М.Хажиева. ЛАЙЛА ЛАЛАМИНИНГ "THE MOOR'S ACCOUNT" ТАРИХИЙ-БИОГРАФИК РОМАНИДА ИНТЕРТЕКСТУАЛ СТИЛИСТИК ВОСИТА ТАХЛИЛИ.....	268
Ж.И.Мизрабова, М.А.Бахронова. ВИЛЬЯМ ШЕКСПИРНИНГ "ХАМЛЕТ" АСАРИДА КАСАЛЛИК НОМЛАРИНИНГ ТУРЛИ ТАРЖИМАЛАРДА БЕРИЛИШИ.....	270
Ж.И. Мизрабова, О.Б. Яхшиева. О ПЕРЕВОДАХ ТРАГЕДИИ У. ШЕКСПИРА "ТАМЛЕТ".....	274
Досбаева Наргиза. "СЕН" ВА "СИЗ"НИНГ ТАРЖИМАДАГИ ЛАКУНАРЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....	278
Вахромжон Тolibjanov. MARK TVEN ASARLARIDAGI BOLALAR NUTQI TARJIMASIDA MUQOBILLIK MASALASI.....	282
Ganieva Orzigul, Chariyeva Mekhriniso. DESCRIPTION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN PEOPLE AND SOCIETY IN JOHN STEINBECK'S "THE GRAPES OF WRATH".....	286
Ф.Б.Садуллаев, М.Б.Эргашева. "AND THERE WERE NONE" ("ХЕЧ КИМ ҚОЛМАДИ") АСАРИДА ДЕТЕКТИВ ЖАНРИ АНЪАНАЛАРИНИНГ ДАВОМ ЭТТИРИЛИШИ.....	289
M.S.Narziyeva. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ADABIY ASARLARNI O'QITISH – SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	292
Muxtor Ro'ziyev, Gulshan Haitova, Zarina Aхmedova. HAYNRIX BO'LLNING „KATARINA BLUMNING YO'QOTILGAN OBRO'YI„ QISSASIDA INSONNING ZIDDIYATLI KECHINMALARINING IFODALANISHI.....	296
Khayrullayeva Nigorabegim. THE CHARACTERIZATION OF MARY ALICE MONROE'S FICTION.....	299
M.M. Adizova. DONNA TARTNING "THE SECRET HISTORY" ASARIDA FRAZEOLOGIZMLAR.....	302
Кенджаева Гулрух. ПРОБЛЕМА НАЦИОНАЛЬНОСТИ В ПЕРЕВОДЕ ОБРАЩЕНИИ.....	306
Khurshida Turaeva, Sabina Negmatova. E.L.VOYNICH'S SKILL OF DEPICTING WOMEN IN SOCIAL LIFE THROUGH HER NOVEL "PUT OFF THY SHOES".	308
Пулатова Моҳидчехра. Кристофер Марлонинг "Буёқ теңурланг" асарида Ҳарбий лексик бирликлар қўлланилишининг семантик таҳлили.....	311
Ruzinnurodova Zarifa. DETECTIVE GENRE AND ITS PECULIARITIES.....	315

Qurvatova Dilrabo Habibovna, Ochiylova Nilufar O'lmasovna. CHINGIZ AYTMATOVNING "ALVIDO, GULSARI" ASARIDA "OT" OBRAZI.....	253
Маърифат Ражабова. АЛИШЕР НАВОИЙ ЛИРИКАСИДА ДЕВ, ПАРИ, МАЛАК ОБРАЗЛАРИНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ.....	256
О.М. Файзуллоев, М.М.Рахимов. САМА ЖЕНЩИНА БЫЛА В ЕГО ВЛАСТИ (О ПРОИЗВЕДЕНИЯХ УИЛКИ КОЛЛИНЗА).....	259
Н.О. Yusupova, Z.O'. Raximova. DESCRIPTION OF SOCIAL LIFE AND SENSE OF GRIEF IN KHALED HOSSEINI'S "THE KITE RUNNER".....	265
Ф.М.Хажиева. ЛАЙЛА ЛАЛАМИНИНГ "THE MOOR'S ACCOUNT" ТАРИХИЙ-БИОГРАФИК РОМАНИДА ИНТЕРТЕКСТУАЛ СТИЛИСТИК ВОСИТА ТАХЛИЛИ.....	268
Ж.И.Мизрабова, М.А.Бахронова. ВИЛЬЯМ ШЕКСПИРНИНГ "ҲАМЛЕТ" АСАРИДА КАСАЛЛИК НОМЛАРИНИНГ ТУРЛИ ТАРЖИМАЛАРДА БЕРИЛИШИ.....	270
Ж.И. Мизрабова, О.Б. Яхшиева. О ПЕРЕВОДАХ ТРАГЕДИИ У. ШЕКСПИРА "ТАМЛЕТ".....	274
Досбаева Наргиза. "СЕН" ВА "СИЗ"НИНГ ТАРЖИМАДАГИ ЛАКУНАРЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....	278
Вахромжон Тolibjanov. MARK TVEN ASARLARIDAGI BOLALAR NUTQI TARJIMASIDA MUQOBILLIK MASALASI.....	282
Ganieva Orzigul, Chariyeva Mekhriniso. DESCRIPTION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN PEOPLE AND SOCIETY IN JOHN STEINBECK'S "THE GRAPES OF WRATH".....	286
Ф.Б.Садуллаев, М.Б.Эргашева. "AND THERE WERE NONE" ("ҲЕЧ КИМ ҚОЛМАДИ") АСАРИДА ДЕТЕКТИВ ЖАНРИ АНЪАНАЛАРИНИНГ ДАВОМ ЭТТИРИЛИШИ.....	289
M.S.Narziyeva. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ADABIY ASARLARNI O'QITISH – SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	292
Muxtor Ro'ziyev, Gulshan Haitova, Zarina Axmedova. HAYNRIX BO'LLNING „KATARINA BLUMNING YO'QOTILGAN OBRO'YI, QISSASIDA INSONNING ZIDDIYATLI KECHINMALARINING IFODALANISHI.....	296
Khayrullayeva Nigorabegim. THE CHARACTERIZATION OF MARY ALICE MONROE'S FICTION.....	299
M.M. Adizova. DONNA TARTNING "THE SECRET HISTORY" ASARIDA FRAZEOLOGIZMLAR.....	302
Кенджаева Гулрух. ПРОБЛЕМА НАЦИОНАЛЬНОСТИ В ПЕРЕВОДЕ ОБРАЩЕНИЙ.....	306
Khurshida Turaeva, Sabina Negmatova. E.L.VOYNICH'S SKILL OF DEPICTING WOMEN IN SOCIAL LIFE THROUGH HER NOVEL "PUT OFF THY SHOES".	308
Пулатова Моҳичехра. Кристофер Марлоунинг "Буёқ теъмуранг" асарида Ҳарбий лексик бирликлар қўлланилишининг семантик таҳлили.....	311
Ruzimirodova Zarifa. DETECTIVE GENRE AND ITS PECULIARITIES.....	315

CHINGIZ AYTMATOVNING “ALVIDO, GULSARI” ASARIDA “OT” OBRAZI

Quvvatova Dilrabo Habibovna,

Professor, BuxDU

Ochilova Nilufar O'limasovna,

o'qituvchi, BuxDU

“Men “Alvido, Gulsari” ni uch marta o'qib chiqqanimga qaramay, gulsarining gulhan oldidadi holatini to'rtinchi marta o'qishga o'zimda kuch topdim.”

Dmitriy Shastakovich, rus bastakori.

Abstract. This article deals with the literal interpretation of “horse” image in the work of well-known Kyrgyz writer Ch.Aytmatov, “Alvido, Gulsari!”.

Key words. Story, pacer (ambler), image of horse, horse-herder, filly, colt, dun (light-brown with black mane and tale), pedigree horse, fauna (animals), nature.

Kirish. Chingiz Aytmatovning asarlari kirib bormagan xonadon, kitobxon yuragi bo'lmasa kerak. Jahon adabiyotida Aytmatov o'zining serqirra ijodi va xotiralarga boy asarlari bilan butun jahon kitobxonlari yuragidan joy olganiga hech shubha yo'q.

Ch. Aytmatov asarlariga ko'pchilik ta'rif bergan, dunyo yozuvchilari, olimlari yuqori baho berishgan. Jumladan, “Jamila”, “Oq kema”, “Qiyomat”, “Birinchi muallim” kabi asarlari jahon adabiyotida kitob ixlosmandlari tomonidan iliq kutib olingan. Biroq biz Ch. Aytmatovning “Alvido, Gulsari” asari haqida so'z yuritmoqchimiz. Ch. Aytmatovning sara asarlari orasida “Alvido, Gulsari” qissasi jahon adabiyotida alohida o'rin tutadi. Qissa bosh qahramoni Tanaboy jon taslim qilayotgan oti Gulsarining boshida turib, butun hayotini eslaydi. Qissada bir tomondan odamlardagi mehr-oqibat yo'qolib borayotgani, ikkinchi tomondan, tabiat va inson o'rtasidagi muvozanatning buzilib borayotganligi hikoya qilinadi. Ch. Aytmatovning bu qissasida ekologiya muammosini ko'taradiki, hayvonot dunyosini asrash, yosh avlodga sog'lom va asl holda yetkazish masalasi izchillik bilan qalam tebratadi.

Asosiy qism. Qissada “ot” obrazi haqida ko'pgina qiziqarli va foydali ma'lumotlarga duch kelinadi. Asar o'qilavergan sari kitobxon muallifning otlarga

bo'lgan mehr taftini his qilib boradi. Aslida Gulsari oddiy ot emas, u saman yo'rg'adir. Muallifning o'zi Gulsarini shunday ta'riflaydi:

"Rangi sap-sariq bo'lgani uchun Gulsari deb nom olgan qari yo'rg'asining umrida so'nngi marta Aleksandrovka balandligiga ko'tarilayotganligini va u hozir o'z yo'lining oxirgi chaqirimlarini bosib o'tayotganligini bu qayoqdan bilsin.... "Gulsari tug'ma yo'rg'a edi va ana shu dong'i chiqqan yo'rg'asi tufayli Tanaboyning boshiga umrida ko'p yaxshi va yomon kunlar tushdi."Ilgari Gulsarini aravaga qo'shish hech kimning hayoliga ham kelmasdi, uni aravaga qo'shish ko'rnamaklik edi." [1,327]

Ushbu satrlardan ma'lumki, Gulsari oddiy ot emas, balki tug'ma yo'rg'a, ya'ni u tez chopadigan va u faqat yugurish uchun yaratilgan ot kabi aravaga qo'shilmaydigan yugurk otlardanligi ta'kidlanadi. Tanaboyning Gulsari bilan uchrashuvini yozuvchi quyidagicha tasvirlaydi: *"Tanaboy toqqa yilqichi bo'lib borganida, u yerda, keksa To'rg'ayning yilqilari orasida bir yarim yashar saman toyni birinchi marta ko'rgandi. - Merosga nima qoldiryapsiz, oqsoqol? Yilqilaringiz unchalik aytadigan emas-ku, a?" deb qochirim qildi Tanaboy....*

-Bittasi bor! O'ng tomonda o'tlab yurgan huv anovi saman toy. Zo'r ot bo'ladi.

- Qaysi biri, huv anovi koptokdek yum-yumalog'imi? Ko'rinishidan uvoqqina-ku, beli ham kaltagina.

- Vaqtidan o'rib tug'ilgan. Quvvatga kirsam zo'r bo'ladi.

- Nima fazilati bor? Nimasi yaxshi?

-Tug'ma yo'rg'a.

-Xo'sh nima qipni?

-Bundaylarni kam uchratganman. Ilgarigi zamonlarda u bebaho ot hisoblanardi. Bunday ot uchun chavandoz yigitlar poyga-uloqlarda jonlarini tikishardi. [1,335]

Gulsari vaqtidan oldin tug'ilgan bo'lsa-da, uning kelajakda kuchli, yugurk, saman ayg'ir bo'lib yetishishi bashorat qilinadi. Ayg'ir bo'lganda ham shunday ayg'ir bo'lib yetishadiki, unga hammaning havasi kelib, hatto taqlid qilishadi. Shu o'rinda bir ma'lumotni keltirib o'tish lozim. Otlar jismonan turli xil bo'lishadi: Zotdor ot, yaroqsiz ot.

Zotdor otlarga arg'umoq, aspi toza, arabi ot, bedov ot, chura ot, duldul ot, yugurk ot, to'riq ot kabilar. Yaroqsiz otlarga yobi ot, partal ot, cho'mmoq ot, cho'ntoq ot, cho'bir ot kabilar. [3,16] Gulsari esa zotdor yugurk ot hisoblanadi.

To'rg'ay otni shunday ta'riflaydi: *"Go'zal qizlar kabi yaxshi yo'rg'aning ham xushiori ko'p bo'ladi. Qiz taqdiri shundayki, yaxshi odamga tushsa, ochilib ketadi, ko'z ko'rib quvonadi, biron axmoqning qo'liga tushsa, qizni ko'rib xafa bo'lib ketasan. Yordam ham bera olmaysan. Yaxshi ot ham shunday bo'ladi. Nobud qilib qo'yish hech gap emas uni. Poygada qoqilib yiqiladi."* [1,335]

Ha, yozuvchi otlarni go'zal qizlarga o'xshatadi. Haqiqatan, otlarni agar yaxshi parvarishlasa, kundan-kunga ochilib, chiroyiga chiroy, quvvatiga quvvat qo'shilib boraveradi. Ko'rib ko'z quvnaidi. Tanaboy ham Gulsarini ko'z qorachig'iday asrab, uni go'zal saman otga aylantiradi. *"Bir yarim yasharli kalta dumli, paxmoq toychadan*

kelishgan, baqurvat ayg'irga aylanib borayotgandi. Uning bo'yi o'sdi, tanasi yumshoq tarhlarini yo'qotib, uchburchak shaklga kira boshlagandi. Ko'kragi keng, orqasi ingichka edi. Kallasi ham yo'rg'a otlarnikidek ozg'in, peshonasi do'ng, ko'zlarining oraligi keng, lablari yig'iq va tarang edi. Ammo uning chopishdan boshqa ishi yo'q bo'lib, shu sababli ham xo'jayiniga ko'p tashvish orttirardi. O'z tengdoshlarini orqasidan ergashirib, bularning orasida uchar yulduzdek chopib yurardi...” [1,338] Gulsari ana shunday uchqur ot. Lekin har doim ham ot xohlaganday bo'lavermaydi. Tanaboy uni egarlaydi, odam minmagan Gulsari, endi boshqa ishlarga qo'shiladi. Tanaboy aytganidek, axir umr bo'yi ishsiz, bekor yummaydi-ku. Aytganidek, qanchalik azobli bo'lmasin, og'zidagi surluqqa ham, belidagi egarga ham, tuyog'idagi taqalarga ham ko'nikib ketadi va hatto ot qilishi kerak bo'lgan ishlarga ham ko'nikadi.

Gulsarini hamma tanirdi. Muallif uning dovrug'ini futbolchi yulduzlarga o'xshatadi. Gulsarini ham yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan yosh-u qari “Tanaboyning yo'rg'asi”, “Ovulning ko'rki” deb ta'riflashadi. Chang-to'zonda katta bo'layotgan bolalar ham “Men Gulsaliman...”, “Yo'q, men Gulsaliman...” deb bahslashib, ko'cha changitib Gulsari bo'lib chpardi. Bu esa Gulsari obro'sini haminqadar yuksaltirardi. Ha, Gulsari o'z zamonining haqiqiy yo'rg'asi edi. O'shanda Gulsari shuhratning nimaligini va u qanday buyuk qudrat ekanligini o'zining birinchi katta poygasida bilgandi. Daryo yoqasidagi katta sayil uning ilk tanilishi edi. “...Raqiblar orida qolganida nafas olish ham osonlashgandek bo'ldi. Oldinda esa daryoning muyulishi kumushdek yal'irab ko'rina boshlagan, yashil o'tloq ko'zga tashlanmoqda va olisdan odamlarning qiyqiriq, xayqiriqlari eshiti'lmoqda edi... Shunda yo'rg'a birdan o'zining holdan toyganligini sezdi. Masofa o'z ta'sirini ko'rsatgan edi.... Lekin huv oldinda ko'p sonli olomon guvillar va to'lg'anar, o'tliq va piyoda kishilar peshvoz chiqib, ikki yoqdan oqib kelar, qichqiriqlar borgan sari kuchayar edi... Saman yo'rg'a biroz nafasini rostlab, tinchib qolganida, xaloyiq davrani katta ochib, g'oliblarni quladi: “Gulsari, Gulsari, Gulsari!” degan ovo'zlar ko'kka o'rladi”...”Mag'rur va uchqur ot boshini baland ko'targanicha ko'zlarini chqatib sahnaga chiqdi... U o'zining chiroyli, qudratli va mashhur ekanligini bilardi. ” [1,353]

Qissaning har bir satri ot haqida so'zlaydi, uning yurishi, turishi, nafas olishi, odamlarni tushunishi, his qilishi, o'zining xarakteri shakllanishi kabi tafsilotlarni muallif haqiqiy qirg'iz chavandozlaridek tasvirlaydi. Gulsarining yana bir xislati bor edi, u uyuri uchun javobgar edi, ular uchun jonini ham ayamardi. Bir kecha dovul bo'lganida, “...uyurmi o'ylab, dahshatga tushib, jon-jahdi bilan kishnab yubordi. Unda o'z urug'ini xavfdan saqlashdek azaliy tabiiy sezgi uyg'ongandi. ” [1,360]

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, otlar yoshiga qarab tasnif qilinadi. Masalan, qulum – bir yoshli toy; baytal, biya – o'tning modasi; g'o'nan – ikki yoshli toy; do'nan – to'rt yoshli ot kabilar. [3,18]

Gulsarining boshiga qora kunlar ham soya solishni boshlaydi. Kolxozga yangi tayinlangan rais Gulsarini mingisi keladi va uni Tanaboydan tortib oladi. Biroq, Gulsari olib ketilgan kumidan boshlab, o'z uyuriga, biyalari yoniga qochib kelaveradi. Ko'p qochaverganidan nihoyat, raisni jahli chiqib uni shafqatsizlarcha bichtirishga buyuradi...Gulsari endi avvalgidek yelib-yugurib chopa olmasdi, zanjir kishanlarni uzib

tashlay olmasdi. Vaqt o'tib Gulsari o'ziga kela boshlaganida, yana chopqillay boshladi, chunki endi yaxshi inson qo'lga tushgandi. Shu zaylda Gulsari qo'ldan-qo'lga o'tib borar, umri ham poyoniga yetardi. Umrining so'nggi kunlarida Gulsarini aravaga qo'shishgandi...

Tanaboy partiyadan haydalganida, odamlar undan yuz o'girganida ham oti Gulsari uning tomon chopib keladi. Barcha odamlar sizdan yuz o'girganida ham, ana shu tilsiz jonivorlar sizni umutmas ekan. Bejizga faylasuflar "Odamlardan qoch, hayvonlarga bor" deyishmagan. *"Jarlik yoqasidagi o'chib qolgan gulxanning qorayib qolgan cho'g'lari sekin so'nar edi. Uning yomida yelkasiga po'stinini tashlab, sochlari oqarib ketgan chol turardi. Endi yo'rg'aning ustini po'stin bilan yopishga hojat yo'q edi. Gulsari narigi dunyoga ravona bo'lgandi..."*[1,438]

Xulosa o'mida magistrant Egamberdiyeva Gulchiroyning fikrlari bilan yakunlamoqchiman. "Inson uchun o'zi sig'inib, ishongan, e'tiqod qo'ygan narsasining puch yong'oqdek bo'lib chiqishidan-da azob yo'q. Balki shuning uchun ham Tanaboy barcha azoblardan xalos bo'lgan Gulsariga shodon hayqiriqlar bilan, "uch, uchaver" deya nido qiladi. Yo'rg'a bo'lib tug'ilgan ot yo'rg'aligicha yo'rg'alab-yo'rg'alab jon berdi. Tanaboy bundan kuyinmaydi, aksincha, yolg'on hayotdan ketishdek "baxt" bilan otni tabriklab, "Alvido, Gulsari!.." deydi. Boisi Gulsarida o'zini ko'rgan Tanaboy bunday baxtga – ozodlikka o'zi erishganday quvonadi va unga "uchaver" deydi. Bir so'z bilan aytganda, adib qalamga olgan umumbashariy mavzuni kitobxonga yetkazib berishda ot obrazidan juda mahorat bilan foydalana olgan". [2,22]

Xulosa. 21-asr texnika asri bo'lsa-da, biz insonlar jonivorlarga hamisha muhtojmiz. Ular bizning haqiqiy do'stimiz, zabonsiz himoyachimizdir. Muallif nazari bilan qarasaq, bir uyum temir sizni dardizga sherik bo'la oarmidi?! Yoki quvonchli kunlaringizni texnika bilan baham ko'ra olarmidingiz?! Demoqchimizki, istaymizmi yo'qmi, tabiat va inson, jonivor va bashariyat – bular doim bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib qolaveradi. Faqatgina bizning vazifamiz kelajak avlodga ana shu borliqni asrab-avaylab yetkazib berishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Aytmatov Ch. Tanlangan asarlar: qissalar. T.: "Sharq", 2016.- 656 b.
2. Egamberdiyeva G. XX asr adabiyotida "ot" obrazi. Buxoro, 2020. 29 b.
3. Pleumuratov J. O'zbek xalq dostonlaridagi zoonimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari (BMD). Nukus, 2014. – 84 b.

АЛИШЕР НАВОИЙ ДИРНИКАСИДА ДЕВ, ПАРИ, МАЛАК ОБРАЗЛАРИНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ

Маърифат Ражабова
доцент, ф.ф.н., БухДУ

Abstract. This article analyzes artistic images of pari, malak (angels), dev (satan) in Alisher Navoi's poetry.

Key words. Folklore, lyrics, poetry, images, angle, dev.